

CHET EL ADIBLARI ASARLARINI TAHLIL QILISH ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

M. Hazratqulov¹, H. Boltayeva², M. Tolliboyeva³

Annotatsiya:

Ushbu maqolada chet el adiblarining ertaklarini tahlil qilish ularni boshlang'ich sinfda o'rgatish metodlari ko'rsatib berilgan. Matnlar bilan ishlashning ilmiy-metodik asoslari suhbat, savol-javob metodlari asosida tushuntirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: darslik, matn, tahlil, anglash.

doi: <https://doi.org/10.2024/occkato3>

Adabiy ertakchilikda ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining siri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkirligi, ma'nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko'pchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo'shilib ketadi.

Adabiy ertakning o'tkir, maroqli sujeti, voqea rivojida favqulotda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi unda ezgulik kuchining – yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so'z va iboralarining qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilning ta'sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarlidir. Ertakda qatnashuvchilar ko'pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z kishilar timsoli bo'ladi.

Andersenning "Bolalar gurungi" ertagda ham o'zi tengi bolalarning suhbatini eshitib turgan xizmatkor bola, tushkunlikka tushib qolmadi, ularni o'zidan yuqori qo'yib, hayotda yengilmadi, aksincha barchasiga mehnat qilib erishish muminligi haqida o'yladi va nihoyat o'z kelajagini yarata oldi.

Ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakati muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g'alaba qozonishiga ishonch uyg'otadi. O'quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida "Kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi?)", "Nima uchun?", "Nima uchun jazolandi? (yoki rag'batlantirildi?)", „Nima uchun ertakdagi ba'zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki ba'zilaridan yuz o'giradi?)“ kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib, xulosaga keladilar. Boshlang'ich sinflarda adabiy ertaklar o'rgatilayotganda ko'proq adibning maqsadi, nima demoqchi ekanligidan kelib chiqib yondashilganda maqsad yana-da aniq ko'zga tashlanadi. Bu usul X.Andersen, Aka-uka Grimmlar, A.Pushkin asarlarini o'rgatish borasida ko'proq ahamiyat kasb etadi.

Ertak matni ustida ishlashda tanlab o'qish, savollarga javob berish, o'quvchilarning o'zlari ertak mazmuniga oid savollar tuzib, javob berishlari, reja tuzish, qayta hikoyalash,

¹ Hazratqulov Mutallib Rashidovich, SamDU Maktabgacha, boshlang'ich va texnologiya kafedrasi dotsenti

² Boltayeva Hulkar, Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

³ Tolliboyeva Madina, Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

ijodiy davom ettirish, ertak aytish, qahramonlarni grafik tasvirlash kabi ish turlaridan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Adabiy ertaklarda qahramonlarning odatlari tahlil qilinadi, ularning maqsadiga erishish yo'lidagi mahaqqatli mehnatlari tasvirlanadi.

Adabiy ertaklarni tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi. Bolalar o'qituvchi rahbarligida ertakda qatnashuvchilarning xulq-atvori, ayrim xatti-harakatlarini baholaydilar, ularning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini aytadilar va shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertakni rollarga bo'lib sahna ko'rinishi tarzida tashkillashtirishlari ham mumkin..

Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o'qishgagina emas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og'zaki nutqni o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi.

O'quvchilarni 1-sinfdayoq ertak tilidan erkin foydalanishga o'rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni o'qituvchi aytib berishi mumkin.

O'quvchi ertak mazmunini o'zlashtirib olgandan so'ng, uning tili ustida ishlashga alohida ahamiyat qaratilishi zarur. Ertak mazmunini qayta hikoyalashda, qahramonlarga tavsif berishda o'quvchilarning o'z nutqida til vositalaridan o'rinli foydalanish talab qilinadi. Til vositalaridan foydalanish uchun talab va vaziyat, ehtiyoj yaratish zarur.

Ertak tilida shunday so'z va iboralar borki, ular bolaga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Sh.Perroning "Qizil Shapkacha" ertagi aytib berilayotganda Qizil Shapkachaning soddaligi, beg'uborligiga alohida urg'u berishlik, uning Bo'ri bilan suhbatidagi soddalik va ishonuvchanlikni ko'rsatib bera olish ham muhim omillardan biri hisoblanadi. O'qituvchi so'zlarga o'quvchilar diqqati qaratib, ertakni so'zlab berayotganda ulardan nutqda foydalanishlariga erishish zarur.

Ertak matni bilan ishlash jarayonida unda qo'llangan badiiy vositalar: jonlantirish, metafora, mubolag'alar ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi barcha fikrlarni hisobga olganda, ertakni o'rganish darslarining qurilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Ertak bilan tanishtirish:
 - a) o'quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash;
 - b) o'qituvchining ertakni ifodali o'qishi, yod aytib berishi va hokazo.
2. Ertakni o'quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o'tkazish;
3. Ertakni qismlarga bo'lib o'qish va tahlil qilish; undagi ayrim tasviriy vositalar, ma'nodosh so'zlarni topish, lug'at ishi (ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirish);
4. Ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o'qish);
5. Ertakni so'zlab berish;
6. Umumlashtiruvchi suhbat (ertak g'oyasini ochish);
7. Ma'lum topshiriq asosida ertakni qayta o'qish (ijodiy va mustaqil ishlar);
8. Vazifani tekshirish va yakunlash;
9. Uyda ertakni o'qib (yoki aytib) berishga tayyorlanish.

Buyuk olmon ertakchilari Aka-uka Grimmlarning "Oppog'oy" ertagida ham soddalik va beg'uborlikning makr va zo'rovonlik ustidan g'alabasi blalarcha til bilan ko'rsatib erigan. Ertak quyidagi voqealar bilan boshlanadi:

"Uzoq-uzoq o'tmishda bir go'zal ayol qirol saroyida deraza yonida kashta tikib o'tirar edi. Bu Qirolicha ekan. U oq matoga gullar tikar va o'ylardi: «Agar mening jajji qizalog'im bo'lganida qanchalar baxtli bo'lar edim!» U mudrab barmog'iga igna sanchib olibdi va uch tomchi qoni matoga tomibdi. «Mening qizalog'imning lablari qondek qizil, tanasi qordek oppoq, sochlari mumdek tim qora bo'lsa, qanday go'zal bo'lar edi u», - o'ylar edi Qirolicha. Vaqt o'tib Qirolicha qiz ko'rdi va u onasi orzu qilganidek juda go'zal edi. Baxtiyor Qirolicha

qiziga Oppog'oy deb ism qo'ydi. Ammo Qirolicha juda betob edi va qizi hali yosh chog'ida olamdan o'tibdi. Oppog'oyning otasi – Qirol ancha vaqtgacha juda qayg'urdi va yolg'iz yashadi. Va nihoyat, qirol yana uylandi va bu qirollikda katta bayram bo'ldi. Uning yangi xotini ham juda go'zal edi, ammo uning yuragi sovuq, qahri qattiq edi”.

Ertakning mana shu joyidan boshlab kulminatsion nuqtasi boshlanadi. Aslida o'quvchilar uchun ham eng qiziq va hayotning achchiq tajribasi ko'rinib turgan jihati mana shunda aks etadi. Hayot doimo bir tekisda davom etmagani singari hayotda turli tasodiflar va qiyinchiliklar yuz beradi. Asar qahramoni shu qiyinchiiklarga dosh berib, shu qiyinchiliklarni yengib, hayot sinovlaridan o'tadi.

Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev “Badiiy tahlil asoslari”¹ kitobida quyidagilarni bayon qiladi: “Adabiy asarni tahlil qilishning muhim prinsiplaridan yana biri estetik asoslarning ustuvorlik tamoyilidir. Filologik ta'lim amaliyotida badiiy tahlilning maqsadi nimaligi hamisha ham to'g'ri belgilab olinavermaganligi uchun estetik asoslarning ustuvorligi tamoyiliga ko'pincha amal qilinmaydi. Badiiy asar ko'proq inson ruhiyati manzarasi ifodasi bo'lgani bois o'qirmanlarni eng qabariq, eng ta'sirchan tuyg'ular tasviri bilan yuzma-yuz qiladi”.

Ushbu ertagimizni ham o'quvchilar bilan tahlilga tortish mobaynida shu narsaga alohida e'tibor berish kerakki, Oppog'oyning boshidan o'tkazayotgan kechinmalari, uning iztiroblari, qiyinchiiklarini his qilish pozitsiasini paydo qila bilish lozim. Hayot insonga qiyinchilik berib, albatta uning yechimini ham bergani kabi, qiyinchiliklardan keyin keladigan quvonch onlarini ham his qilishni anglay bilish, tushuna olish, his qila olish etaplarini o'quvchilarga anglata olish lozim.

Ertak quyidagicha davom etadi:

“Buning ustiga Qirolicha g'oyat kekkaygan edi. U kunlarini chiroyli liboslarini almashtirib, o'zining uzun qora sochlarini parvarishlab o'tkazardi. Keyin u ko'zgu oldida turib o'ziga mahliyo bo'lardi. U shunchalar shuhratparast ediki, butun qirollikda eng go'zal ayol bo'lishni istardi. Qirolichaning eng qimmatbaho va suyakli buyumi sehrli ko'zgu edi. U har kuni unga quyidagi savolni berardi:

«Ko'zgujon, senga ayon,
Haqiqatni qil bayon:
Menmi dunyoda go'zal,
Oq yanog'i yongan yal?»

Agar ko'zgu unga eng go'zali o'zingsan, deb javob qaytarsa, Qirolicha juda baxtiyor, hammasi ajoyib bo'lardi. Ammo ayrim hollarda ko'zgu boshqa qizlarning ismlarini aytardi. Shunda Qirolicha dahshatli darajada g'azablanar, yon-atrofdagilar qo'rquvdan o'rtanar edilar.

Islom ta'limotida, umuman dunyoviy dinlarda eng yomon jihat deb kibr qoralanadi. Kibrlik – bu shaytoniy xislat bo'lib, barcha yomonliklarning boshlanishi shundan hisoblanadi. Ertagimizda Oppog'oyning o'gay onasida shu xususiyat barchasidan o'tib ketgandi. U olamda yolg'iz o'zi go'zallik egasi bo'lishni xohlab qoladi. Aksiga olib uning eng kata raqibi o'z qizi – Oppog'oy ekanligini anglab qolgandan so'ng uning g'azabi battar alanganadi. Zolim Qirolicha bechora qizni o'ldirishga buyruq beradi.

Bu buyruq nafaqat kichik yoshdagi o'quvchilar, balki kata yoshdagi odamlarning qalbini larzaga soladigan holatdir. Ona o'z farzandini o'limga buyurishi muminmi? Qanday holatlardagini bunday jirkanch o'y-xayol inson miyasiga kelishi mumkin. Bu istak xohishlarning zaminida insonning badnafsligi, ozko'zligi, yebto'ymasligi turishini

¹ Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak nashriyoti 2016. – 464 b. 90-bet.

o'quvchilar tushuna olishlari kerak. Nafarqat tushunishlari, balki his qila olishlari ham lozim.

Q.Yo'ldoshev ta'biri bilan aytganda "Tahllda estetik asoslarga yetarli e'tibor bermaslik o'rganilayotgan asarni faqat mantiqiy sillogizmlar tarzida tushunishga olib keladi. Tahlilga bu xilda yondashish asl san'at asarlaridagi jozibani yo'qqa chiqarishi mumkin"¹.

Taniqli nemis adiblari Aka-uka Grimlarning qalamiga mansub bo'lgan "Oppog'oy" ertagining g'oyasi shundan iboratki, barcha ertaklarda bo'lgani kabi bu ertakda ham yaxshilik, ezgulik, mehnatsevarlik ulug'langan. Yomonlik, g'arazgo'ylik, xudbinlik kabi xislatlar salbiy tasvirlangan. Yomonlikning ustidan yaxshilik g'alaba qozongan.

Ertakda shunday badiiy-tasviriy lavhalar tasvirlanganiki, ularni o'qiganingizda xuddi ko'z oldida sodir bo'layotgandek gavdalanadi. Adibning mahoratini shundan ham bilib olishimiz mumkin.

Asarda bosh qahramon Oppog'oy juda mehribon, soddadil, ochiqko'ngil, mehnatsevar, qalb va tashqi go'zallik uyg'unligidagi bir malika timsolida tasvirlangan. Ushbu qahramonga qarama-qarshi obraz sifatida Oppog'oyning o'gay onasi Yovuz Qirolicha gavdalanitirilgan. Asar asosan shu ikki obraz o'rtasidagi munosabatlar negizida qurilgan. Ularning bir-biriga bo'lgan munosabatlari: o'gay onaning qizga ko'rsatgan zulmlari, Oppog'oyning boshidan o'tkazgan kechinmalri, uning yovuz qirolichadan qahridan qochib boshidan o'tkazgan sarguzashtlari tasvirlangan.

Bu sarguzashtlar davomida u bir qancha do'stlar orttirgan. O'rmonda ajoyib gnomlar bilan tanishdi. Ular juda mehribon va soda, mitti odamchalar edi. Ular Oppog'oyni juda yaxshi qabul qilishdi. Qo'llaridan kelgancha Oppog'oyga yordam qo'lini cho'zishdi.

Oppog'oy o'gay ona ta'qibi ostida juda ko'p qiyinchiliklarni boshdan kechirdi.

Ertakning kulminatsion nuqtasida tasvirlangan holat, ya'ni, malikaning mangu uyquga ketishi tasviri hisoblanadi. Ertakdagi bu muammoli lavha yechimi sifatida sof va qaynoq muhabbat tanlangan. Malikani mangu uyqudan faqatgina o'ktam shahzodaning sof muhabbati qutqara oladi.

Kun kelib Oppog'oyning o'z shahzodasi keladi va go'zal malikani bu mangu uyqudan uyg'otadi. Ular baxtli va sehrli hayotga adam qo'yishadi. Oppog'oy orzusidagi hayot qasri tomon oq ot mingan shahzodasi bilan bulutlar orasiga yo'l oladi.

"Oppog'oy" ertagi bo'yicha qiyidagicha PIRLS topshiriqli savollarini tuzish va o'quvchilar bilan ishlash ularning og'zaki va yozma nutqlari takomillashishi uchun xizmat qiladi:

1. Mana "Oppog'oy va yetti gnom" ertagi bilan tanishib chiqdik! Bolajonlar! Ertak degani nima o'zi? Bir o'ylab ko'ring-chi, nima sababdan ertaklar barcha bolalar uchun birdek sevimi? O'zingiz misolingizda fikringizni bayon qiling!

2. Ertakning boshlanishida oq matoga gullar tikib o'tirgan qirolichani nima dunyodagi eng baxtiyor insonga aylantirar edi?

- a) kashtasining jiloli bo'lishi
- b) jajji qizalog'ining bo'lishi
- c) dunyodagi barcha boyliklarning egasi bo'lishi
- d) abadiy umr va go'zallik

3. Bir o'ylab ko'ringchi, nima uchun qirolicha qiziga aynan

Oppog'oy deb ism qo'ydi? Hayotda ham qanday insonlar o'zining ismi bilan birga tug'iladi? Ularga misollar ayta olasizmi?

4. Ertakda Oppog'oyning go'zalligiga qanday ta'rif berilgan?

- a) labi qizil bamisoli qon, sochi qora mumsimon, yuzlari qor kabi oppoq;
- b) labi qizil bamisoli g'unchadek, sochlari tundek qora, yuzlari paxta kabi oq;

¹ Yo'ldoshev Q. Badiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak nashriyoti 2016. – 464 b. 91-bet.

- c)labi qizil bamisoli gul, sochlari mayin malla, yuzlari quyoshdek porlab turuvchi;
- d)labi qizil bamisoli qon, sochlari tunde qora, yuzlari olmadek qizil.

5. “Oppog’oy ulg’aygan sari, chiroyiga chiroy qo’shib borardi. U shunchalar maftunkor va yoqimli ediki, uni hamma yaxshi ko’rardi”. Ertakdagi shu jumlagi qanday munosabat bildirasiz? Nima deb o’ylaysiz? Hamma chiroyli insonlar ham yoqimli bo’laveradimi? Hayotda hammaga birdek yaxshi ko’rinadigan insonlar qanday fazilatlariga ega bo’ladi?

6. Bir o’ylab ko’ring-chi, Oppog’oy nima uchun kun bo’yi mehnat qilib, malika bo’lsa ham, xizmatkorlar bilan yashasa-da, doim yaxshi kayfiyatda qo’shiq kuylab yuraradi? Sizningcha, orzu qilish insonlarning hayotini qanchalik o’zgartirishi mumkin?

7. Nima uchun yovuz qirolicha Oppog’oyni bu qadar yomon ko’rar edi?

Hayotda ham shunday fe’l-atvoriga ega insonlarni bilasizmi?

8. Ovchini yolg’on ishlatishga nima majbur qildi? Yolg’onni yaxshilik yo’lida ham ishlatish mumkinmi? Uning o’rnida siz bo’lganingizda qanday yo’l tutardingiz?

9. Yetti gnomlar haqidagi taassurotlaringizni bayon qiling!

Nima deb o’ylaysiz? Nima uchun yozuvchi har bir gnomning fe’l-atvorini ismlariga moslashtirgan?

10. Bir o’ylab ko’ring-chi, yovuz qirolichaning hayoti boshqacha bo’lishi ham mumkinmidi? Qanday fe’l-atvorlari uning taqdirini ayanchli yakunlanishiga sabab bo’ldi?

11. “Oppog’oy va yetti gnom” ertagi voqealari tasviri qaysi ertaklar bilan mazmunan o’xshash? Boshqa ertaklar bilan bog’lab fikringizni bayon qiling!

12. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz? “Ertaklar yaxshilikka yetaklar” deganda nimani tushunasiz?

Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, o’quvchilar unda to’g’rilik, halollik g’alaba qilganidan, kambag’al kishilar qiyinchilikdan qutilganidanya’ni yaxshilik, ezgulik ro’yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganida quvonadilar. Ular hayotda hamma doimo shunday bo’lishini istaydilar. Masalan, Aka-uka Grimlarning “Oppog’oy” ertagida jajji qalb egasining boshdan kechirgan qiyinchiliklari har qanday kishini qayg’uga soladi, biroq qizchaning harakatchanligi, soddaligi, qalbi mehr-muhabbat bilan to’laligi uning muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi. U barcha qiyinchiliklarni yengib o’ta oladi. Oxir-oqibat maqsadiga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

- [1]. Husanboyeva.Q, Hazratqulov.M, Xolsaidov F. Ona tili va o’qish savodxonligiga o’rgatish metodikasi. Darslik. -Toshkent. Innovatsion-ziyo, 2022.252 bet.
- [2]. Yo’ldoshev Q., Yo’ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari.-Toshkent: Kamalak nashriyoti 2016.-464 b.
- [3]. Ona tili va o’qish savodxonligi. 1-qism. Darslik. 2-sinf uchun.K.Mavlonova [va boshq]. Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.-120 b.
- [4]. Хусанбоева Қ. Таҳлил – адабиётни англаш йўли. Тошкент. “Муҳаррир” нашриёти, 2013. -432 б.